

JAHON TILSHUNOSLIGIDA TAQLIDIY SO‘ZLARGA OID ILMIY- NAZARIY QARASHLAR



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-158-162>

Tashmuxamedova Dildora Aziz qizi

TDSHU, Xitoyshunoslik oliy maktabi tayanch doktoranti

Toshkent, O‘zbekiston

Dildora_Azimova_98@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada taqlid so‘zlarning kelib chiqishi, ularning til tizimidagi o‘rni va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tilshunoslik tarixida ovozga taqlid nazariyasi qadimgi yunon faylasuflari, jumladan, Demokrit va Platon qarashlaridan boshlab turli davrlarda shakllanib kelganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Taqlid so‘zlarning boshqa so‘z turkumlaridan farqi, ularning semantik va sintaktik xususiyatlari hamda turli tillardagi ifodalanish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz, rus, yapon, xitoy va o‘zbek tillaridagi taqlidlarning o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rib chiqilib, turli olimlarning fikrlari keltiriladi. Maqolada taqlid so‘zlarning grammatik ob‘yekt sifatida o‘rni, nominativ xususiyatlari va ular orqali ifodalangan ma‘no va tushunchalar atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: taqlid so‘zlar, onomatopoeiya, lingvistika, tilshunoslik nazariyalari, semantika, sintaksis, undov, fonosemantika, o‘zbek tili, rus tili, ingliz tili, qiyosiy tahlil.

Tilimizda taqlid so‘zlarning qanday shakllanganini o‘ylashimiz bilan, darhol tilning paydo bo‘lishi haqidagi qadimiy nazariyalar yodga keladi. Bu masalada turli qarashlar mavjud bo‘lib, ularning ildizi Yevropa tilshunosligi tarixiga borib taqaladi. Shulardan biri — mukammal ilmiy asosga ega bo‘lmasa ham, ko‘p muhokamalarga sabab bo‘lgan taqlid nazariyasidir.

Mazkur nazariya inson dastlabki so‘zlarni atrofdagi predmetlar chiqargan tovushlarga taqlid qilish orqali yaratgan, deb izohlaydi. Qadimgi Yunoniston olimlari — Demokrit va Platon davridayoq bu g‘oya ilgari surilgan. Ularga ko‘ra, ibtidoiy odamlar ongli yoki bexosdan hayvonlarning qichqirig‘i, qushlarning sayrash, shamolning uvillashi yoki sharsharalarning shovqinini qaytarishga uringanlar.

Lingvistik mohiyatiga ko‘ra, taqlid so‘zlar alohida qatlamni tashkil etadi va so‘z turkumlari tizimida o‘ziga xos mavqega ega. Shu bois bu masala jahon tilshunosligida ko‘p bora bahs va munozaralarga sabab bo‘ladi. Terminning o‘zi

borasida qadimgi yunon tilshunosligiga tayanilgan manbalarda (masalan, Lidell izohlarida) mufasssal ma'lumot uchraydi. Yevropa tillarida lotin va yunon manbalaridan kirib kelgan *onomatopoeia* atamasi "nom berish" ma'nosi bilan bog'lanadi va mavjud tovushlardan kelib chiqqan so'zlar sifatida talqin qilinadi. Taqlid so'zlarning termin sifatidagi etimologiyasi qadimgi yunon tilshunosligiga borib taqalishi haqida Lidell batafsil ma'lumot bergan [Liddell G. Robert Scott. A 1940:388]. Asli lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan Yevropa tillaridagi *onomatopoeia* so'zi nom berish ma'nosini ifodalaydi va olamdagi mavjud tovushlardan paydo bo'lgan so'zlar sifatida talqin qilinadi [Joseph P 2000:403].

Tildagi taqlid so'zlar tabiatdagi tovushlarga to'la mos kelmaydi. Lug'atlarda keltirilayotgan taqlidni ifodalovchi tovushlar kompleksi tabiatdagi tovushning ayni o'zi emasligini bir tovush turli tillarda turlicha ifodalanishi, ayni bir tilning ichki qonuniyatlari va tovush imkoniyatlaridan kelib chiqib ifodalanishi bilan izohlash mumkin. Bir narsaning tovushini nafaqat turli tillar turlicha taqlid qiladi, balki bu hodisa bir tildagi turli dialekt yoki shevalarda ham uchrab turadi. Tabiatdagi mavjud hodisalar tovushlariga va turli obrazlarga taqlid qilish orqali hosil bo'lgan shartli so'zlar taqlid so'zlarni ifodalaydi.

Imitatsiya esa har qanday tovushga to'g'ridan to'g'ri taqlid qilish orqali yuzaga keladi. Bunda til va yozuv imkoniyatlari hisobga olinmaydi va ular, odatda, turli til va millat sohiblari tomonidan bir xilda jaranglaydi. Imitatsiya tilda aks etmaganligi uchun ham grammatik hodisa sanalmaydi va ularda otlashish va fe'llashish xususiyati bo'lmaydi. Agar biz shu tipdagi so'zlarga ega bo'lganimizda edi, bizda taqlid so'zlar muammosi bo'lmas edi, deb ta'kidlaydi, Germanovich [Германович 1947:192]. Tovushga taqlid so'zlar ham til ixtiyoriga o'tgach, ular sotsial qimmat kasb etadi. Shunday ekan, taqlidlarni so'z deb atash mumkinmi yoki yo'q? Abakumov taqlidlarni so'zlashuvdan tashqari turuvchi hodisa sifatida talqin qiladi va ularni so'z darajasigacha o'sib chiqmagan deb ta'kidlaydi [Абакумов 1942:115]. Bundan tashqari, Peshkovskiy ham unga qo'shilib, "Qo'ng'iroqning ovozi ifodalovchi din-dinni so'z deb hisoblash qiyin", – deb aytadi [Пешковский 1926:168]. Taqlid so'zlar faqatgina tovushni anglatishi bilan emas, balki shu orqali ma'no ifodalashi va tushuncha anglatishi bilan ahamiyatlidir. "Osmondan gumbur-gumbur degan ovoz eshitildi, so'ng yomg'ir sharros yog'a boshladi" gapini biz osmonda it huribdi yoki osmonda shunday hodisa bo'libdiki, quyosh chiqishiga sabab bo'ladi, deb tushunmaymiz. Gumbur-gumbur degan tovush yomg'ir oldidan sodir bo'lishini barchamiz tushunamiz, demak, taqlidlar so'roqqa javob bo'lmasa-da, ma'no va tushuncha anglatyapti. Ba'zi so'zlar borki, nominativlik funksiyasini bajarib, predmetlik ma'nosini namoyon etadi, boshqa bir turdagi so'zlar esa,

relyativ va funksional ma'noda ko'rinadi. Taqlid so'zlar ikkinchi guruh tarkibiga kirib, grammatikaning obyekti bo'lishga haqli [Кўнфуров 1966:22].

Grammatikani o'rganish bir qadar chuqurlashib, taqlidlar ham so'zlar qatoridan joy ola boshlagan. Har qanday tilni tadqiq qilishda va chet tilini o'rganishda taqlid so'zlarni nazardan chetda qoldirmaslik kerak [СТИШКОВСКАЯ 2000:103]. Birinchidan, taqlid so'zlar asosida yasalgan yangi so'zlarni ham o'zlashtirishimiz osonlashadi. Ikkinchidan, biz nafaqat belgilarni tushunamiz, balki madaniyatlararo tafovutlarni ham anglaymiz.

“Collins Cobuild Advanced Learner's English Dictionary” nomli ingliz tili izohli tug'atida ham taqlidan hosil bo'lgan so'z o'zi taqlid qilinayotgan so'z bilan uzviy bog'liq ekanligi izohlangan [Collins 2003:97].

Ingliz tilida taqlid so'zlar borasida eng zalvorli tadqiqotlarni olib borgan amerikalik tilshunos olimlar Tamori va Schourup taqlidlarni asosan butun dunyoda mavjud bo'lgan tovushlarning yozuvdagi aksi yoki tovushlarga taqlidan paydo bo'lgan so'zlar sifatida ta'riflanishi, aslida ular nafaqat tovushga taqlidni, balki harakatni hamda fizik yoki mental holatni ham ifodalashi mumkinligini ta'kidlaydi. Olimlar ingliz va yapon tillaridagi taqlidlarning tadqiqi davomida tovushga taqlid so'zlardan holatga taqlidlarning farqlarini tushuntirib beradi [Tamori 1999:10]. Bundan tashqari, Schourup ingliz va yapon tilidagi taqlidlar norasmiy nutq uslubiga (ham yozma, ham og'zaki) xos ekanligini aytib o'tgan. Bizningcha, taqlid so'zlar hissiy jarayonlarni aks etgani va tovushlarni ifodalagani uchun ham barcha tillarda faqatgina norasmiy uslubda qo'llaniladi.

Amerikalik tilshunoslar Fromkin, Rodman hamda Hyams “Taqlid so'zlar – bu ma'nosi talaffuzidayoq aks etuvchi so'zlardir” deb ta'riflagan [Schourup 2008:48]. Olimlar taqlidlarni tovushni aks ettiruvchi, turli tovushni yozuvda yoki inson tili bilan ifoda etuvchi yoki shunga o'xshash ta'riflardan qochib, fikrimizcha, taqlidlarga eng original tarzda yondoshishgan. Darhaqiqat, leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlarning ma'nosi har doim ham so'zning o'zidan anglashilmaydi, biroq taqlidlarning ma'nosi ularning talaffuzida namoyon bo'ladi. Qaysi tilda bo'lmasin, qanday yozuvda ifodalanmasin, taqlid so'zlarning ma'nosi talaffuz vaqtida anglanadi.

Rus olimlari taqlid so'zlarni ta'riflab, ularni undovlarga juda yaqin ekanligini aytib o'tishadi. Rus tilida taqlid va undovlar so'z sifatida morfologiyaning alohida-alohida obyekti hisoblanadi, biroq ularni bir-biridan ajratib o'rganish kerak. Taqlidlar nominativ ma'noning yo'qligi hamda tovushni ifodalashi bilan undovlarga yaqin tursa-da, bu ikki turkum orasidagi chegarani aniqlab olishda qiyinchilik tug'dirmaydi, deb hisoblaymiz.

Shu o'rinda, an'anaviy rus tilshunosligida taqlidlarni so'z sifatida sanamaslik kerak, degan fikrlar ha bo'lgan. Ularning leksik ma'nosi bo'lmaganligi, faqatgina tovushni ifodalaganligi uchun ham morfologiya doirasida o'rganish kerak emas deyilgan. Olim A.M.Peshkovskiy ham shu masalaga murojaat qilib quyidacha yozgan: "Колокольчик динь-динь-динь". Bu gapda na ovoz va ovozni anglatuvchi so'zning ma'nosi bor, bu yerdagi barcha ma'no tovushdi [Пешковский 1926:14]. Darhaqiqat, taqlidlar Grammatik jihatdan ma'no anglatmasligi, so'roqqa javob bo'lmashligi mumkin, biroq ular gapda katta ahamiyatga ega va so'z sifatida talqin qilinishi kerak.

N.I.Ashmarin, S.V.Voronin, A.M.Gazov-Ginzberg, N.M.Yusifovlarning ishlariga asoslanib, taqlidlarning qanday tovushni ifodalashiga ko'ra 4 guruhga bo'lish mumkin:

1. Hayvonlarning tovushlari (qushlar, yovvoyi hayvonlar va hasharotlar)
2. Inson tovushlari (yo'talish, aksa urish, kulish va h.k.)
3. Predmet tovushlari (qo'ng'iroq tovushi, buyumlardan chiqadigan tovushlar)
4. Jonsiz tabiat tovushlari (suv oqishi, chaqmoq, momoqaldiraq kabi).

"Hozirgi zamon xitoy tili lug'ati"da "taqlid so'zlar turli tovushlarning so'zlaridir" deya ta'riflangan.

O'zbek tilshunoslik terminlariga berilgan izohda "Taqlid so'zlar inson, hayvon va boshqa narsalarning tovushini va obrazini taqlidan ifodalovchi so'zdir", deb yoritilgan [Hojiyev 2002:108]. O'zbek tilshunosligida yuqorida berilgan ta'riflardan farqli o'laroq, taqlid so'zlar obrazni ham ifoda etishi mumkinligi ta'kidlanadi. Boshqa bir adabiyotlarda esa taqlid so'zlar tovushga va holatga nisbatan taqlidni ifodalashi ta'kidlangan. O'zbek tilshunosligida faqatgina tovush va ovozni emas, balki obraz va holatni umumiy tarzda ifodalovchi so'zlar taqlid so'zlar deb yuritiladi. Yuqorida sanab o'tilgan dunyo atamashunosligida taqlid so'zlarning nomlanishida aynan tovushga taqlid ishorasi mavjud.

Narsalarning bir-biriga urilgandagi tovushini ifodalovchi bu so'zni yapon tilida aytib bo'lmaydi, chunki yapon tilida "c" va "r" harflari ketma ket bir bo'g'inda kelolmaydi, bundan tashqari, yapon tilida "sh" tovushi ham mavjud emas [Gasser 2008:65]. Huddi shunday hodisa xitoy tiliga ham xos bo'lib, buning sababi xitoy tili harfiy yozuvda emas, balki bo'g'inlarni ifodalovchi belgilar bilan aks etishidadir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, taqlid so'zlar qaysi tilda bo'lmashin, qanday yozuvda ifodalanmasin, ular bizni qurshab turgan olamdagi barcha tovushlarni aks ettiradi. Taqlidlar insonning, hayvonning yoki narsa-buyumning tovushiga taqlidan paydo bo'lishi mumkin, ular nominativ xususiyatga ega bo'lmasha-da, talaffuzi orqali ma'no beradi. Taqlidlar har bir tilning hamda yozuvning o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib yozuvda aks ettiriladi.

Adabiyotlar

1. Абакумов, С. А. *Современный русский литературный язык*. – Moskva: Советская наука, 1942. – 115 b.
2. Германович, А. И. *Звукоподражание и звукоподражательные слова русского языка*. – Simferopol: Крымский пединститут им. М. В. Фрунзе, 1947. – 192 b.
3. Gasser, M. *Iconicity and arbitrariness in spoken words*. – Indiana: Indiana University, 2008. – 65 p.
4. Harper Collins. *Collins Cobuild Advanced Learner's English Dictionary*. – London: G. Harper Collins Publishers, 2003. – 97 p.
5. Hojiyev, A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 108 b.
6. Joseph, P. Picket. *The American Heritage Dictionary of English Language*. – Boston: Houghton Mifflin, 2000. – 155 p.
7. Liddell, G.; Scott, Robert. *A Greek-English Lexicon*. – Oxford: Clarendon Press, 1940. – 388 p.
8. Қўнғуров, Р. *Ўзбек тилида тасвирий сўзлар*. – Toshkent: Fan, 1966. – 22 b.
9. Пешковский, А. М. *Русский синтаксис в научном освещении*. – Moskva: Восток, 1926. – 168 b.
10. Пешковский, А. М. *Русский синтаксис в научном освещении*. – Moskva: Государственное учебно-педагогическое издательство Министерства просвещения РСФСР, 1926. – 14 b.
11. Schourup, L. *Nichi-Ei onomatope no Taisho-kenkyu // Gengo*. Vol. 22. – Tokyo: Kurosio Publishers, 2008. – 48 p.
12. Stishkovskaya, L. L. *О чем говорят животные?* – Moskva: Восток, 2000. – 103 b.
13. Tamori, Ikuhiro; Schourup, Lawrence. *Onomatope: Keitai to Imi*. – Tokyo: Kurosio Publishers, 1999. – 10 p.